



Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 – yil yanvar - dekabr


E'tibor bering!

- 2019 - yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi **71,4 %**ni tashkil etdi.
- 6632 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil qilindi.
- 2019 - yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 11,4 birlikni tashkil qildi.

2019 – yilning yanvar – dekabrda 6632 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 martaga ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda (39,4 %), sanoatda (27,6 %), qurilishda (8,9 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (4,1 %), yashash va ovqatlanishda (7,4 %), tashish va saqlashda (12,6 %) tashkil etilgan.

2019 – yil yanvar–dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo



Sanoat



Qurilish



Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi



Yashash va
ovqatlanish bo'yicha
xizmatlar




Tashish va
saqlash

**2019 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning
asosiy ko'rsatkichlari**

	O'lchov birligi	2018 y.	2019 y.	(+/-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofimalar soni	birlikda	22560	25807	3247
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofimalar soni	birlikda	3131	6632	3501
YaHM	%	72,3	71,4	-0,9
Sanoat	%	21,2	21,4	0,2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	99,5	99,3	-0,2
Investitsiya	%	57,7	67,3	-9,6
Qurilish	%	96,9	97,0	0,1
Savdo	%	88,8	87,4	-1,4
Xizmatlar	%	71,7	68,7	-3,0
Yuk tashish	%	93,9	95,0	1,1
Yuk aylanmasi	%	66,6	69,3	2,7
Yo'lovchi tashish	%	96,4	96,0	-0,4
Yo'lovchi aylanmasi	%	96,8	96,1	-0,7
Eksport	%	75,3	57,8	-17,5
Import	%	16,7	15,2	-1,5



**2019 - yilning yanvar-dekabrida kichik
tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy
ko'rsatkichlari, %**




Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar

	Yanvar–dekabr 2018 - yil	Yanvar–dekabr 2019 - yil
Andijon viloyati	3131	6632
Andijon shaxri	983	1895
Xonobod shaxri	81	186
Oltinko'l tumani	175	359
Andijon tumani	209	475
Baliqchi tumani	123	285
Bo'ston tumani	97	206
Buloqboshi tumani	82	209
Jalaquduq tumani	100	259
Izboskan tumani	179	365
Ulugnor tumani	65	107
Qo'rgontepa tumani	183	318
Asaka tumani	273	614
Marhamat tumani	147	306
Shaxrixon tumani	194	510
Paxtaobod tumani	125	292
Xo'jaobod tumani	115	246

2019 - yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Andijon shahrida - 1895 ta, Asaka tumanida - 614 ta, Shaxrixon tumanida - 510 ta. Andijon tumanida - 475 ta, Izboskan tumanida - 365 ta, Oltinko'l tumanida - 359 tani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Ulug'nor tumanida – 107 tani tashkil etdi.



**2019 yil yanvar-dekabr holatiga yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar
bo'yicha ulushi, %**



2019 - yil yanvar - dekabr holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Andijon shahri - 28,6 %, Asaka tumani - 9,3 %, Shaxrixon tumani - 7,7 %, Andijon tumani - 7,2 %, Izboskan tumani - 5,5 %, Oltinko'l tumani - 5,4 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalar**

	yanvar – dekabr 2018 – y.	yanvar – dekabr 2019 – y.
Jami	3131	6632
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	251	273
Sanoat	853	1829
Qurilish	445	589
Savdo	747	2615
Tashish va saqlash	220	214
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	147	492
Axborot va aloqa	62	106
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	165	137
Boshqa turdagi xizmatlar	241	377

*Ma'lumot uchun: 2019 – yil yanvar – dekabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi savdoda – **2615 ta**, shuningdek:*

sanoatda – 1829 ta;

qurilishda – 589 ta;

qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 273 ta;


*yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – **492 tani**
tashkil etdi.*

**Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori
ko'rsatkichga ega bo'lgan hududlar, birlikda**

	yanvar– dekabr 2018 – y.	yanvar– dekabr 2019 – y.	farq (+–)
Andijon sh.	983	1895	912
Asaka tumani	273	614	341
Shaxrixon tumani	194	510	316
Andijon tumani	209	475	266
Izboskan tumani	179	365	186
Oltinko'l tumani	175	359	184

2019 -yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'sish Andijon shahrida - 1895 ta, Asaka tumanida - 614 ta, Shaxrixon tumanida - 510 ta, Andijon tumanida - 475 ta, Izboskan tumanida – 365 ta va Oltinko'l tumanida bu ko'rsatkich - 359 tani tashkil etdi.

**Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik
tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda),
yanvar-dekabr holatiga.**



2019 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Andijon shahrida (21,9), Ulug`nor tumanida (18,6), Xo`jaobod tumanida (14), Bo`ston tumanida (12,3), Xonobod shahrida (12,1), aksincha Paxtaobod tumanida (8,5), Shaxrixon tumanida (7,6), Buloqboshi tumanida (7,3), Izboskan tumanida esa (7,1) birlikka ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

* *Kichik korxona, mikrofirmalar, fermer va dehqon xo'jaliklari*


2019 yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha faoliyat
yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda)

2019 yil yanvar-dekabr




* Kichik korxona, mikrofirmalar, fermer va dehqon xo'jaliklari

2019 yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha
kichik biznes korxonalarini tuzish koeffisienti
(% hisobida)



Quyida, 2019 - yilning yanvar-dekabrida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 21,4 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – 99,3 %, qurilishda – 97,0 %, investitsiyada – 67,3%, savdoda – 87,4 %, eksportda - 57,8 %, importda – 15,2 % va xizmatlar sohasidagi – 68,7 % ulushi aniq ko'rsatilgan.


2019 - yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlikning ulushi




Kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushining pasayishi dinamikasi, yanvar-dekabr holatiga, %

2019 - yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 71,4 %ni tashkil qildi. (2018 - yilning yanvar-dekabrida 72,3 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan tushuntiriladi.



Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)



2019 –yil yanvar–dekabrda kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (%)

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Andijon viloyati	21,4	97,0	68,7	67,3
Andijon shaxri	27,2	95,4	43,9	43,8
Xonobod shaxri	14,3	100,0	94,7	56,9
Oltinko'l tumani	63,6	100,0	94,5	73,9
Andijon tumani	79,6	100,0	83,9	74,8
Baliqchi tumani	99,4	100,0	95,3	80,5
Bo'ston tumani	95,7	100,0	95,3	78,8
Buloqboshi tumani	100,0	100,0	89,6	88,3
Jalaquduq tumani	82,9	85,1	92,2	81,0
Izboskan tumani	65,8	100,0	95,4	77,5
Ulugnor tumani	82,1	75,0	84,3	77,2
Qo'rgontepa tumani	75,0	93,3	95,4	94,2
Asaka tumani	2,3	100,0	93,7	26,2
Marhamat tumani	87,3	100,0	97,3	76,2
Shaxrixon tumani	94,6	100,0	91,8	82,7
Paxtaobod tumani	76,0	100,0	96,4	76,9
Xo'jaobod tumani	92,9	100,0	95,5	84,1


Hududlar bo'yicha **sanoat** sohasining yuqori ulushini Buloqboshi (100,0%) va Baliqchi (99,4%), Bo'ston (95,7 %) hamda Shaxrixon (94,6 %) tumanlari tashkil etdi.

Qurilishda – Xonobod, Oltinko'l, Andijon, Baliqchi, Bo'ston, Buloqboshi, Izboskan, Asaka, Marhamat, Shaxrixon, Paxtaobod va Xo'jaobod (100,0 %), Andijon Shaxri (95,4 %), va Qo'rgontepa (93,3 %) tumanlari tashkil etdi.


Xizmatlar sohasida – Marhamat (97,3 %), Paxtaobod (96,4 %), Xo'jaobod (95,5 %), Qo'rgontepa, (95,4 %), tumanlari tashkil etdi.

Investitsiyada - Qo'rgontepa (94,2 %), Buloqboshi (88,3 %), Xo'jaobod (80,0 %) tumanlari tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2019 - yilning yanvar - dekabrda




**Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmatlar)ning,
jami eksport hajmidagi ulushi, %**




2019 - yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmatlar)ning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Shaxrixon, Bo'ston, Buloqboshi, Paxtaobod va Baliqchi tumanlarida - 100,0 %, Xo'jaobod tumanida - 99,7 % , Qo'rg'ontepa tumanida - 99,4 %, Ulug'nor tumanida – 98,5 % ni, eng past ko'rsatkich Oltinko'l tumanida – 18,6 %ni tashkil etdi.

**Kichik tadbirkorlikdagi import (tovar, xizmatlar)ning,
jami import hajmidagi ulushi, %**



2019 - yil yanvar-dekabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi import (tovar, xizmatlar)ning jami importdagi eng ko'p ulushi Shaxrixon, Paxtaobod, Marxamat, Jalaquduq, Buloqboshi, Bo'ston tumanlarida - 100,0 %, Xo'jaobod tumanida - 99,6 %, Andijon tumanida - 96,4 %, Qo'rgontepa tumanida – 95,3 %ni, eng past ko'rsatkich esa Asaka tumanida – 1,7 %ni tashkil etdi.


2019 - yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Hududlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (1350,2 mlrd. so'm), Shaxrixon (707,4 mlrd. so'm), Andijon (681,8 mlrd. so'm) Xo'jaobod (530,5 mlrd. so'm) va Asaka (482,3 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Ulug'nor tumanida (152,7 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




**2019 yil yanvar-dekabr holatiga jami sanoat mahsulotidagi
kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %**



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulush Buloqboshi tumanida -100,0%, Baliqchi tumanida – 99,4%, Bo'ston tumanida – 95,7%, Shaxrixon tumanida – 94,6% ni tashkil etdi.


Aksincha, Asaka tumanida (2,3%) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.

**2019 - yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik
(biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Andijon shaxri (2824,3 mlrd. so'm), Shaxrixon (1647,7 mlrd. so'm), Asaka (1115,8 mlrd. so'm), Qo'rg'ontepa (1044,1 mlrd. so'm), Andijon (622,2 mlrd. so'm), Paxtaobod (516,3 mlrd. so'm) hamda Izboskan (505,2 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


**2019 – yil yanvar–dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik
(biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati**



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri (1432,2 mlrd. so'm), Andijon (379,7 mlrd. so'm), Oltinko'l (225,7 mlrd. so'm), Shaxrixon (213,2 mlrd. so'm), Asaka (186,8 mlrd. so'm), tumanlarida, eng kam hajm esa Buloqboshi (61,2 mlrd. so'm) va, Ulug'nor (53,2 mlrd. so'm), tumanlarida qayd etildi.




**2019 yil yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik
(biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati**



Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Andijon shahri (2114,1 mlrd. so'm), Shaxrixon (537,4 mlrd. so'm), Asaka (563,2 mlrd.so'm), Andijon (430,7 mlrd.so'm), Qo'rg'ontepa (382,6 mlrd.so'm) va Izboskan (379,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Xizmatlar hajmining eng kamlari Xonobod sh. (91,1 mlrd.so'm) va Ulug' nor (90,1 mlrd.so'm) tumanlarida ko'satilgan.


**2019 yil 4 - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan
mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha taqsimlanishi***




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019 yil 4-chorakda kuzatuvda ishtirok etgan jami 1003 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi xizmatlar sohasida – 32,3% (324 ta), savdoda – 25,7 % (258 ta), sanoatda – 23,4 % (235 ta), qurilishda – 11,5 % (115 ta), qishloq. o'rmon va baliq xo'jaligida – 7,1 % (71 ta)ni tashkil etdi.

** yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.*

2019 yil 4 - chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2019 yil 4 - chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil 4 - choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, barcha faoliyat bilan shug'ullanadigan korxonalar uchun qulay iqtisodiy ahvol joriy yilning o'tgan choragiga nisbatan pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning 4 - choragida 3 - chorakka nisbatan iqtisodiy holatini qoniqarsiz deb baholaydigan korxonalar ulushi Xizmatlar korxonalarida 0,5 punktga kamaydi.

O'tgan chorakka nisbatan eng katta ulushni umumiy iqtisodiy ahvoli qoniqarli bo'lgan korxonalar tashkil etdi.

Oxirgi yillik hisobotida mahsulot sotishdan sof tushumga ega bo'lgan mikrofirma va kichik korxonalarning 2019 yil 3 va 4 - choragi bo'yicha iqtisodiy ahvolni baholash, %




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil 4 - choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan barcha (savdodan tashqari) korxonalar uchun qulay iqtisodiy holat yaxshilandi va ularning bahosi o'tgan yilning mos davriga nisbatan oshdi.

Svdo faoliyati korxonalari o'rtasida umumiy iqtisodiy holatning ijobiy bahosi pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning 4 - choragida iqtisodiy faoliyatning deyarli barcha turlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy ahvoli qoniqarsiz deb baholaydigan korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.

Eng katta ulushni umumiy iqtisodiy ahvoli qoniqarli deb topilgan korxonalar tashkil qiladi.

**Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2018 – 2019 yillar
4 - chorakdagi iqtisodiy ahvolini baholash, %**




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil 4 - choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy yilning o'tgan choragiga nisbatan iqtisodiy vaziyatni yaqin uch oyda yaxshilashga ishongan: Savdo korxonalari ulushi – 0,3 punktga, Xizmatlar – 8,3 punktga o'sdi.

Shu bilan birga, o'tgan chorak bilan taqqoslaganda, faoliyatning deyarli barcha turlari bo'yicha yaqin uch oyda ularning iqtisodiy ahvoli o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini kutayotgan korxonalar ulushi barcha faoliyat sohalarida kamaydi.

**Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil
3 va 4 - choraklardagi iqtisodiy ahvolidan
yaqin uch oyda baholanishi %**




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 yil 4 - choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (ish va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy ahvolni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi barcha faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.


Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, Xizmatlar korxonalari ulushi – 5,0 punktga o'sdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini kutayotgan korxonalar ulushi barcha faoliyat sohalarida kamaydi.

**Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning
 2018 - 2019 yillar 4 - chorakdagi iqtisodiy ahvolining
 yaqin uch oyda baholanishi, %**



**2019 yil 4 - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan
yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**




Hududlar kesimida kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan jami 79 ta mikrofirma va kichik korxonalarning ulushi Andijon shahri - 26,6% (21 ta), Izboskan tumani – 11,4 % (11 ta), Qo'rg'ontepa tumani - 8,9 % (7 ta), Shaxrixon tumani – 7,6 % (6 ta), Oltiko'l va Xo'jaobod tumanlarida – 6,3 % (5 tadan), Andijon va Xonobod tumanlarida – 5,1 % (4 tadan), Baliqchi, Bo'ston, Asaka va Paxtaobod tumanlarida – 3,8 % (3 tadan), Jalaquduq, Ulug'nor, Marxamat tumanlarida – 2,5 % (2 ta) ni tashkil qildi.

Tarmoqlar	Birlik
Sanoat	22
Qurilish	9
Savdo	30
Xizmatlar	15
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3

2019 yil 4 - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2019 yil 4 - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %




Joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2019 yilning 4 - choragida qulay iqtisodiy holat savdo korxonalarida yaxshilandi va joriy yilning o'tgan choragiga nisbatan ishlarning yaxshilanishi va ularning bahosi 13,3 punktga oshdi.

Joriy yilning 4 - choragida shu yilning 3 - choragiga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy ahvoli qoniqarsiz deb baholaydigan korxonalar ulushi barcha faoliyat turlari bo'yicha o'sishi kuzatildi.

Eng katta ulushni umumiy iqtisodiy ahvoli qoniqarli deb topilgan korxonalar tashkil qiladi.


2019 yil 3 va 4 - choraklardagi yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy ahvolini baholash, %



Joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2019 yilning 4 - choragida sanoat va savdo sohasi korxonalarining qulay iqtisodiy holati yaxshilandi va ularning bahosi 2018 yilning 4 - choragiga nisbatan mos ravishda 1,3 va 3,5 punktga ko'paydi.

Joriy yilning 4 - choragida 3 - chorakka nisbatan iqtisodiy holatini qoniqarli deb baholaydigan korxonalar ulushi barcha faoliyat turlari bo'yicha sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.


2018 - 2019 yillar 4 - chorakdagi yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy ahvolini baholash, %



Joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatuvi natijalariga ko'ra 2019 yilning 4 - choragi joriy yilning o'tgan choragi bilan taqqoslaganda, yaqin uch oyda iqtisodiy ahvolni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi Savdo Xizmat faoliyat turlari bo'yicha kamayganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan chorak bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy ahvoli o'tgan chorakka nisbatan o'zgarishsiz qoladi deb hisoblaydigan korxonalarning ulushi Savdo Xizmat faoliyat turlari bo'yicha oshdi.

2019 yil 3 va 4 - choragida yangi tashkil etilgan korxonalarning yaqin uch oyda iqtisodiy ahvolini baholash, %



Joriy yilda tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatuvi natijalariga ko'ra 2019 yilning 4 - choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalari ulushi – 19,0 punktga, xizmatlar sohasi korxonalari – 22,6 punktga, savdo sohasi korxonalar–23,3 punktga kamayganligi kuzatildi.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy ahvoli o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblaydigan korxonalar ulushi sanoat, qurilish sohasidan tashqari barcha faoliyat turlari bo'yicha ko'paydi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy ahvoli yomonlashishini kutayotgan korxonalar ulushi savdo sohasidan tashqari barcha faoliyat turlari bo'yicha kamayishi kuzatildi.

2018 -2019 yil 4 - choragida yangi tashkil etilgan korxonalarning yaqin uch oyda iqtisodiy ahvolini baholash, %

